

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BILAN OILA JAMIYATNI BIR
BIRLARIGA BOG'LIQ JIHATLARI****Abdujalilova Saida Abdusattor qizi****Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti****Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodika yo'nalishi****MPRE-6U guruh 2-kurs magistri****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14987799>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan oila jamiyatni bir birlariga bog'liq jihatlari haqida so'z yuritilgan. Oila va maktabgacha ta'lim o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati va maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oila o'rtasidagi hamkorlikning asosiy maqsadlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik, hamkorlik, oila, jamiyat, ijtimoiylashuv, tarbiya, ijtimoiy ko'nikma.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev — “Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi”- deya ta'kidlaydi.

Ta'lim tashkilotlarining bir turi sifatida maktabgacha ta'lim tashkiloti, bolalarning tarbiyasi, ta'limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo'nalganligi bilan bog'liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu asnoda tarbiyalanayotgan bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati boshqa ta'lim tashkilotlarida kechadigan pedagogik jarayonlardan jiddiy farq qiladi va bugungi kunda ushbu ta'lim turiga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining — “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz” kitobida: — “O'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa – kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi”- degan fikrni e'tirof etadilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida —bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga mos yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi va bunda MTT va oilalarning faolligi, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha, kreativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni bolani birgalikda tarbiyalashdir. Hamkorlikning muvaffaqiyati oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti va jamoatchilik vakillari o'rtasidagi o'zaro hurmat va ishonchga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila va jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish zamonaviy ta'limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shartdir.

Oila va maktabgacha ta'lim o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati. Maktabgacha yosh davrida bola shaxsini shakllantirishda oila birlamchi ijtimoiy institut sifatida asosiy rol ni o'ynaydi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning rivojlanish jarayonida metodik va pedagogik yordamni ta'minlaydi. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish:

- bolalarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishni muvofiqlashtiradi;
- bola ijtimoiylashuvining sifatini oshiradi;
- ta'lim-tarbiya jarayonida yagona yondashuvni ta'minlaydi.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarni ijtimoiylashtirishning ikkita muhim institutidir. So'ngi yillarda pedagog tarbiyachilar bilim salohiyatini yanada oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hali yechimini kutayotgan kamchiliklar alaygina. Xususan, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilarida maktab ta'limiga tayyorlash masalalari, tarbiyachilarning kasbiy malakalarining yetishmaslik holatlari uchrab turibdi. Bunday salbiy xolatlarni bartaraf etish MTT va tarbiyachilar hamkorligini yahshilash, alohida o'quv kurslarida tarbiyachilar salohiyatini oshirish, tarbiyachilarning oilalar bilan muntazam hamkorligini yo'lga qo'yish, ota-onalarni ragbatlantirib borish, yosh ota-onalarga metodik tavsiyalar berib borish, ota-onalar ishtirokidagi mashg'ulotlar, seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari olib borish maqsadga muvofiq. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bola tarbiyasida ikki yo'nalish biri ikkinchisining o'rnini bosa olmaydi, balki biri ikkinchisini to'ldiradi. Sog'lom muhitda bola sog'lom fikrlaydi va o'sib ulg'aydi. Sog'lom muhitni yaratish oilada oila a'zolarining maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning bilimdonligiga, zukkoligiga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan oila jamiyatni bir birlariga bog'liq jihatlarini tahlil qilib chiqsak. Ta'lim va tarbiya maktabgacha ta'lim tashkilotlari: Bolaning intellektual, jismoniy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga qaratilgan o'quv dasturlarini taqdim etadi. Oila: Bolaning birinchi va eng muhim tarbiyachisi. Oila bolaning qadriyatlarini, axloqini, madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jamoatchilik: Bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi. Jamoatchilik bolaning o'z atrofidagi odamlar bilan munosabatlarini, ijtimoiy qoidalarni o'rganishini ta'minlaydi.

Hamkorlik va aloqa maktabgacha ta'lim tashkilotlari: Ota-onalar bilan muntazam aloqa o'rnatadi, ularni bolaning ta'limi va rivojlanishi haqida xabardor qiladi va ularning fikrlarini hisobga oladi. Oila: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi, bolaning ta'limi va tarbiyasida faol ishtirok etadi. Jamoatchilik: Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga resurslar va ko'mak taqdim etadi, bolaning ta'limi va rivojlanishiga qaratilgan tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Bolaning rivojlanishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari: Bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Oila: Bolaning hissiy xavfsizligini ta'minlaydi, uni sevgi va g'amxo'rlik bilan o'rab oladi. Jamoatchilik: Bolaning ijtimoiylashuvini tezlashtiradi, uni turli xil madaniyatlar va odamlar bilan tanishtiradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalar tarbiyasida va ularni jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda oilaning va jamiyatning ishtiroki katta ahamiyatga ega. Oila va jamiyat maktabgacha ta'lim bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'zaro hamkorlikda bolalarning intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga zamin yaratadi. Quyida ushbu uch asosiy institutning o'zaro bog'liqligi va hamkorlik qilishi haqida batafsil so'z yuritiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oila o'zaro bog'liqlik. Oila bolalar tarbiyasida birlamchi muhit bo'lib, bola ma'naviy qadriyatlar va hayotiy ko'nikmalarni avvalo oilada o'zlashtiradi. Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning shaxs sifatida rivojlanishi uchun kengroq imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, oila va maktabgacha ta'lim o'rtasida quyidagi jihatlar bo'yicha bog'liqlik mavjud:

-oila bolalarning birlamchi tarbiyachisi hisoblanadi, maktabgacha ta'lim esa ushbu tarbiyani ilmiy asoslangan usullar bilan qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, bola ijtimoiy axloq qoidalarini oilada o'rganadi, ammo uni jamiyatda qo'llashni bog'cha orqali rivojlantiradi.

-maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlashda yordam beradi. Oila esa ushbu yo'nalishlarni davom ettirishi mumkin.

-maktabgacha ta'lim tashkilotlari oilalarni turli tadbirlar va seminarlar orqali tarbiyaviy jarayonga jalb qiladi. Bu orqali ota-onalar bolalar tarbiyasida yanada faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta'lim va jamiyat: o'zaro bog'liqlik. Jamiyat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etishda va qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, quyidagi jihatlar e'tiborga molik:

Jamiyat bolalarda ma'lum bir qadriyatlarni rivojlantirishni talab qiladi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari esa bu qadriyatlarni bolalarga yetkazadi. Masalan, milliy urf-odatlar, ekologik madaniyat va ijtimoiy hamkorlik g'oyalari bog'chalar orqali bolalarga singdiriladi.

Jamiyat maktabgacha ta'lim sohasida yuqori malakali pedagoglarga ehtiyoj sezadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat ehtiyojlariga mos mutaxassislarni jalb qiladi.

Jamiyatning iqtisodiy holati bog'chalar soni, sifat darajasi va pedagogik dasturlarni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muhim investitsiya hisoblanadi.

Oila va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik. Oila va jamiyat ham o'zaro bir-birini to'ldiruvchi institutlardir. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning qadriyatlari, tarbiyaviy yondashuvlari jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, jamiyat oilalarga turli qo'llab-quvvatlovlar ko'rsatadi, masalan:



Huquqiy himoya: Oilaviy ta'lim va tarbiyani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilik.

Moliyaviy yordam: Oilalar uchun subsidiyalar, grantlar va davlat tomonidan yordamlar.

Madaniy-ma'rifiy dasturlar: Oilalarning pedagogik savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlar.

Hamkorlik natijalari. Oila, maktabgacha ta'lim va jamiyatning o'zaro hamkorligi quyidagi natijalarga olib keladi:

Bolalarning har tomonlama rivojlanishi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori darajada amalga oshirilishi.

Jamiyatda mas'uliyatli va bilimdon yosh avlodning shakllanishi.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolani individual shaxs sifatida rivojlantirishda hamkorlik qilishi zarur. Ota-onalar bolalarining qiziqishlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini kuzatadi. Ular bola shaxsini shakllantiruvchi asosiy qadriyatlarni singdiradilar. Masalan, mehribonlik, hurmat, tartib va mehnatsevarlik kabi sifatlar avvalo oilada shakllanadi. Ta'lim tashkilotlari bolalarning individual xususiyatlarini aniqlash uchun maxsus metodikalardan foydalanadi. Shuningdek, bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun tashkil etilgan o'quv o'yinlari, qiziqarli mashg'ulotlar va mahorat darslari orqali bola shaxsini shakllantirishga hissa qo'shadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari oilalarni ta'lim va tarbiyaviy jarayonga faol jalb qilish orqali bolaning rivojlanishiga yanada samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagoglar ota-onalar uchun seminarlar o'tkazib, bolalarni tarbiyalashda zamonaviy yondashuvlarni tushuntiradi. Masalan,

psixologik treninglar, individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish kabi faoliyatlar. Bog'chalar ota-onalarni tadbirlarga, masalan, bayramlar, sport musobaqalari va ijodiy ko'rgazmalarga jalb qiladi. Bu, nafaqat bolalarning qiziqishini oshiradi, balki ota-onalarning pedagogik jarayonga ishtirokini kuchaytiradi. Ba'zi maktabgacha ta'lim tashkilotlari ota-onalar uchun do'stona muhit yaratib, oilalar o'rtasida tajriba almashishga sharoit yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari oila tomonidan berilgan tarbiyaviy asoslarni qo'llab-quvvatlash orqali uzviy rivojlanishni ta'minlaydi. Oila va pedagoglar o'rtasida muloqot orqali bolaning odatlari va xulq-atvori kelishib olinadi. Masalan, bolaning uyda va bog'chada bir xil tartibga rioya qilishi uning ichki intizomni shakllantirishiga yordam beradi. Oiladagi tarbiya va maktabgacha ta'limdagi metodikalarning mosligi bolaning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi samarali muloqot bolalarning rivojlanish jarayonini to'liq kuzatish va boshqarishga yordam beradi. Pedagoglar ota-onalar bilan bolaning rivojlanish darajasi, qiziqishlari va muammolari haqida muntazam axborot almashadi. Shu bilan birga, ota-onalar ham o'z farzandining uy sharoitidagi tarbiyasi haqida pedagoglarni xabardor qiladi. Bu jihatlar oilani va maktabgacha ta'limni yagona tizim sifatida qarashni talab etadi. Shu sababli, ota-onalar va pedagoglar birgalikda ishlash orqali bola tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oila o'rtasidagi hamkorlikning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: bolalarni har tomonlama rivojlantirish: Maktabgacha ta'lim va oila birgalikda ishlash orqali bolaning jismoniy, aqliy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonini uyg'unlashtirish: Oilada va ta'lim tashkilotida beriladigan tarbiya bir-birini to'ldirishi, bolalar uchun yagona tarbiyaviy muhitni yaratadi. Oilalarning pedagogik bilimlarini oshirish: Ta'lim tashkilotlari oilalarni tarbiya jarayoniga jalb qilib, ota-onalarga pedagogik maslahatlar berish orqali ularning tarbiyaviy bilim va ko'nikmalarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. "Ta'lim to'grisida"gi Qonun 2020-yil 23-sentabr
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5712-sonli farmoni 2019-yil 29-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [PF-152-sonli] farmoni
4. Qodirova F., Sh. Toshpo'latova, N. Qayumova, M. A'zamova Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur. 2019.
5. O.Fozilova., I.Turaqulov Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma - Farg'ona 2023
6. Dronova T. N. Bilan birga oila: uchun nafaqa Maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar / T. N. Doronova, G. V. Glushkova, T. I. Grizik va boshqalar - M.: Ta'lim, 2005 yil.
7. Glebova, S. V. Bolalar bog'chasi - oila: aspektlari o'zaro ta'sirlar. G. A. Antipova / Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi. – 2011. -№12.

8. Davydova, O. I. Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan ishlashda kompetentsiyaga asoslangan yondashuv. ota-onalar. O. I. Davydova. - SPB.: OOO "Nashriyot uyi "Bolalik matbuoti", 2013. - 128s.
9. Eliseeva, T. P. Bolalar bog'chasi va oila: zamonaviy o'zaro ta'sir shakllari [Matn] / T. P. Eliseeva. - Minsk: Lexis, 2007.
10. Mikleeva N. V. Bolalar bog'chasi va yoshlar oila: Muvaffaqiyat asoslari o'zaro ta'sirlar. Moskva: Ijodiy markaz, 2010 yil